5)Jamoliddinovic, U. B. . (2022). Origins, Dynamics and Logics Bologna Process. European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 5, 239–245. Retrieved from https://emjms.academicjournal.io/index.php/emjms/article/view/254
6)What is the relationship between education and the economy? https://online.wrexham.ac.uk/what-is-the-relationship-between-education-and-the-economy

O‘ZBEKISTON MINTAQALARIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI

Yoqubjonov Rahmonjon Rahimjon o‘g‘li
Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes kafedrasi stajyor-o’qituvchisi
Namangan davlat universiteti

Annotatsiya: *Tadqiqotning ob’ekti sifatida O’zbekiston Respublikasi fermerlari iqtisodiy faoliyati tanlangan. Iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan o’zgartirish va diversifikatsiyalash sharoitida O’zbekiston mintaqalarida qishloq xo’jaligini rivojlantirish yo’nalishlarining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish, boshqaruv mexanizmi samaradorligini oshirish bo’yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.*

Kalit so‘zlar. *Qishloq xo’jaligi, diversifikatsiya, agroklaster, fermer xo’jaliklari, intensiv, samaradorlik.*

Annotation: *The economic activity of farmers of the Republic of Uzbekistan was selected as the object of the study. In the context of structural transformation and diversification of the economy, it consists in the development of scientific proposals and practical recommendations on improving the economic mechanism of agricultural development in the regions of Uzbekistan, improving the effectiveness of the management mechanism.*

Key words. *Agriculture, diversification, agrocluster, farms, intensive, efficiency.*

Аннотация: *Объектом исследования была выбрана хозяйственная деятельность фермеров Республики Узбекистан. В условиях структурных преобразований и диверсификации экономики она заключается в разработке научных предложений и практических рекомендаций по совершенствованию экономического механизма развития сельского хозяйства в регионах Узбекистана, повышению эффективности механизма управления.*

Ключевые слова*. Сельское хозяйство, диверсификация, агрокластер, фермерские хозяйства, интенсив, эффективность.*

Kirish

Ma’lumki, har qanday mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda qishloq xo’jaligi asosiy o’rinni egallaydi. Aholini oziq-ovqat mahsulotlari, sanoat sohasini esa xomashyo bilan ta’minlash agrar soha zimmasidagi asosiy vazifa ekanini inobatga olsak, qishloq xo’jaligining ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizdagi ahamiyati yaqqol namoyon bo’ladi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, biz qishloq xo‘jaligida islohotlarni qat’iy davom ettiramiz. Yer munosabatlari bo‘yicha katta ishlarni boshlab, shu yilning o‘zida 100 ming gektar ekin yerini aholiga dehqonchilik qilish uchun bo‘lib berdik. Buning hisobidan 1,5 million tonna qo‘shimcha oziq-ovqat yetishtirildi. Eng asosiysi, qishloqlarda 400 mingta yangi dehqon xo‘jaligi tashkil qilindi, 1 million 200 mingdan ziyod

odamlarimiz band bo'lib, daromad olyapti. Umuman, agrar sohada yuqori qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish loyihalariga 2023 yilda 1 milliard dollar ajratiladi[1].

Bularning barchasi O'zbekiston mintaqalarida qishloq xo'jaligini rivojlantirish yo'nalishlarini chuqur tadqiq qilish va uning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha nazariy va amaliy jihatdan asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishni taqozo etadi.

Adabiyotlar sharxi. Qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha bir qator taniqli xorijiy iqtisodchi olimlardan I.A.Altuxov, I.N.Buzdalov, M.Bakket, V.M.Bautin, L.N.Devyatkina [2,3,4,5,6] va boshqalar katta hissa qo'shganlar.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar Q.H.Abdurahmonov, M.Sh.Sharifxo'jaev[7,8] va boshqa bir qator olimlar ilmiy ishlarida qishloq xo'jaligini boshqarishning nazariy va uslubiy asoslari atroflicha yoritilgan. Shuningdek, B.A.Akramov, B.Berkinov, F.Nazarovalar[9,10] tomonidan agrar soha muammolari, shu jumladan, qishloq xo'jaligi korxonalarini rivojlantirishning nazariy asoslari hamda tadbirkorlik sohasini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilgan. Ammo, mazkur tadqiqotlarda O'zbekiston mintaqalarida qishloq xo'jaligini rivojlantirish yo'nalishlariga ta'sir etuvchi omillar, sohani rivojlantirishdagi muammolar hamda sohani boshqarishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish masalalariga etarlicha e'tibor berilmagan va ushbu muammo alohida ilmiy tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilmagan. Mazkur ishning boshqa ilmiy ishlardan farqi shular bilan belgilanadi.

Natijalar

Tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati dissertatsiyada ilgari surilgan ilmiy- nazariy va amaliy g'oyalar, ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan O'zbekiston mintaqalarida qishloq xo'jaligini rivojlantirish yo'nalishlarini boshqarish usullari hamda unga oid kelgusidagi maxsus ilmiy-tadqiqot ishlarida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar respublikamizda O'zbekiston mintaqalarida qishloq xo'jaligini rivojlantirish yo'nalishlarini takomillashtirish va uning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi rolini oshirish tadbirlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Erkin bozor sharoitida agrar bozor faoliyatini davlat doirasidagi iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy jihatdan kompleks muvofiqlashtiruvchi dastaklar orqali mutanosib rivojlantirmasdan turib kutilgan natijalarga erishib bo'lmaydi.

Bugungi kunda qishloq xo'jaligining mamlakat iqtisodiyotdagi o'rni juda katta. Mamlakatda ishlab chiqarilayotgan yalpi ichki mahsulotning 20-25 foizi shu tarmoqning ulishiga to'g'ri keladi. 2021 yilda mamlakat jami yalpi ichki mahsulotining 24,6 foizi shu tarmoqda yaratilgan bo'lsa, 2022 yilda 23,5 foizni tashkil etdi. Mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun zarur bo'lgan erkin harakatdagi qattiq valyuta tushumining yarimidan ko'prog'i shu tarmoq mahsulotlarini eksport qilishdan olinadi. Jumladan, 2022 yilda jami eksportda paxta va oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 7,0 foizni tashkil etdi. Mamlakatda yetishtiriladigan oziq-ovqatning 96 foizidan ko'prog'i qishloq xo'jaligida ishlab chiqariladi. Aholining 60 foizidan ortiqrog'i qishloq joylarda yashaydi. Xalqimizning turmush darajasi, inson resurslarining katta bir qismining ish bilan ta'minlanishi qishloq xo'jaligi bilan bog'liq

1-jadval

Respublika qishloq xo'jaligining malakat iqtisodiyotidagi o'rni

№	Ko'rsatkichlar	2017	2018	2019	2020	2021	2022

1.	Qishloq xo’jaligi yalpi mahsulotining mamlakat yalpi ichki mahsulotdagi salmog’i,%	28,9	26,6	24,4	24,9	24,6	23,5
2.	Qishloq xo’jaligi yalpi mahsulotining o’sish sur’ati, %	103,2	104,5	106,1	107,3	110,1	106,2
3.	paxta tolasi va oziq-ovqat mahsulotlarining yalpi eksportdagi salmog’i, %	22,9	15,9	9,9	8,5	7,9	7,0
4.	Qishloq xo’jaligi mehnat resurslarining salmog’i, %	27,2	26,6	26,2	26,4	25,2	24,9

1-jadval ma’lumotlaridan ko’rinib turibdiki, qishloq xo’jaligi O’zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining eng yirik tarmog’i hisoblanib, yildan yilga uning ulushi kamayib bormoqda. Bu borada shuni ta’kidlash lozimki 2017-2022 yillarda qishloq xo’jaligida barqaror o’sish yuz berdi. Mamlakat iqtisodiyotida sanoatning, xizmat ko’rsatish tizimining nisbatan tez rivojlanib borishi tufayli qishloq xo’jaligining ulushi kamaygan. Bu juda ijobiy jarayon hisoblanadi. Mamlakat iqtisodiyoti jadal o’sib borgan sari unda qishloq xo’jaligining ulushi kamayib boradi. Natijada, rivojlangan sanoatlashgan, xizmat ko’rsatish sohalari taraqqiy topgan mamlakatga aylanishimiz ta’minlanadi.

Mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy, ijtimoiy islohotlarning muvaffaqiyati ko’p jihatdan qishloq xo’jaligining rivojlanish darajasiga bog’liq. Chunki qishloq ho’jaligi mamlakatimiz uchun ham siyosiy, ham iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyat kasb etgan soha bo’lib, u quyidagi funktsiyalarni bajaradi:

- mamlakatmizni oziq-ovqat fondini shakllantiradi;
- yurtimizning oziq-ovqat sohadagi mustaqilligini, xavfsizligini ta’minlaydi;
- qishloq ho’jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan sanoat uchun hom ashyo yetkazib beradi;
- aholini ish joylari bilan ta’minlaydi.


O’zbekiston Respublikasi qishloq xo’jaligi nisbatan ko’p moliyaviy resurslarni talab qilmasdan katta samara berishi mumkin bo’lgan tarmoqlardan biriga kiradi. Bu esa o’tish davri iqtisodiyoti uchun juda katta muhim omillardan biridir. Qishloq joylarda mulkdorlar sinfini shakllantirishning asosiy yo’nalishlarini jadvalda ko’rish mumkin.

Mustaqillik yillarida olib borilgan islohotlar natijasida O’zbekiston Resublikasi dinamik holda rivojlanib borayotgan murakkab iqtisodiy tizimga ega bo’ldi. Qishloq xo’jaligi Respulika iqtsodiyotining yirik va muhim tarmog’i sifatida saqlanib qoldi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda olib borilgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy siyosat natijasida qishloq xo’jaligida chuqur tarkibiy, ijtimoiy va mulkiy munosobatlar o’zgarishi yuz berdi. Mustaqillik yillarida iqtisodiyotni jumladan, qishloq xo’jaligini tubdan isloh qilishning nazariy asoslari prezident I.Karimov tomonidan ishlab chiqildi. Prezidentimiz asarlarida iqtisodiy rivojlanishning turli xil kontseptsiyalari tahlil etildi.

Qishloq xo’jaligida xizmat ko’rsatadigan infratuzilmani rivojlantirmasdan islohotlardan ko’zda tutilgan natijalarga erishish mumkin emasligini anglab, bu soha imkon darajasida rivojlantirilmoqda. Natijada “O’zagrolizing” lizing kompaniyasi, O’zbekiston qishloq xo’jalik ilmiy ishlab chiqarish markazi, “O’zagrokimyota’minot” birlashmasi, “O’zagrosug’urta” kompaniyasi, ixtisoslashgan tijorat banklari kabi xizmat ko’rsatuvchi tizim tashkil etildi.

Amalga oshirilayotgan muhim ishlardan yana biri urug’chilikni yaxshilashga juda katta e’tibor berilayotganidir. Ayniqsa, paxtachilikda urug’chilikni rivojlantirish maqsadida xorijiy mutaxassislar va hamkorlar bilan katta ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qoshida paxta loyihalari bo’yicha maxsus agentlik faoliyat ko’rsatmoqda. Bug’doyning yangi serhosil “Karlik 85”, “Dobraya” navlari sinovdan o’tmoqda. Daslabki 3 yillik sinov natijalariga ko’ra ular hosildorligi, sifati jihatidan hozirgi rayonlashtirilgan bug’doy navlariga qaraganda 15-20 foizga yuqori pillaning Yaponiya, Janubiy Quriyadan sermahsul urug’lari olib kelinib ko’paytirilmoqda, yer resurslarning cheklanganligi, turli sabablarga ko’ra aholi jon boshiga to’g’ri keladigan qishloq xo’jaligi ekin maydonlarining kamayib borishi sohani intensiv rivojlantirishni talab etadi.



2-jadval. O’zbekiston Respublikasi qishloq joylarida mulkdorlar sinfini shakllantirishning asosiy yo’nalishlari

O’zbekiston Respublikasi “Fuqarolik Kodeksi” ning 39-moddasiga muvofiq: “O’z mulkida, xo’jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo’lgan hamda o’z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o’z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo’la oladiganva ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da’vogar va javobgar bo’la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi”.[1] Yuridik shaxslarning foyda olishni o’z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan turlari tadbirkorlik sub’yektlari hisoblanadi.


3-jadval

Qoraqolpog’iston Respublikasi va viloyatlarda ko’p tarmoqli faoliyatni tashkil etgan fermer xo’jaliklari soni (2022 yil 1 dekabr holatiga)

№	Hududlar nomi	Jami fermer xo’jaliklari soni 2022 yil 1 dekabr holatiga	Shundan ko’p tarmoqli faoliyatni tashkil etgan fermer xo’jaliklari soni	Jamiga fermer xo’jaliklariga nisbatan ulushi, %
1	Qoraqalpog’iston Respublikasi	4582	1586	34,6
2	Andijon	8538	3189	37,4
3	Buxoro	5275	1957	37,1
4	Jizzax	10098	3065	30,4
5	Qashqadaryo	12373	4510	36,5
6	Navoiy	2519	1089	43,2
7	Namangan	7443	2411	32,4
8	Samarqand	12641	5124	40,5
9	Surxandaryo	6108	2179	35,7
10	Sirdaryo	5459	1955	35,8
11	Toshkent	9481	3583	37,8
12	Farg’ona	10420	3376	32,4
13	Xorazm	5945	2147	36,1
	Jami	**100882**	**36171**	**35,9**

Mamlatimizda 2022 yilda ko’p tarmoqli fermer xo’jaligini rivojlantirish uchun sarflangan mablag’larning o’z mablag’lari 594558 mln so’mni hamda kredit iablag’lar 244175 mln so’mni tashkil etgan. 2022-yilda ko’p tarmoqli fermer xo’jaliklarini rivojlantirish bo’yicha jami sarflanishi kutilayotgan rejadagi mablag’ 936901 mln so’mni tashkil etgan bo’lsa, haqiqatda 838732 mln so’m moliyalashtirilgan, 2022 yilda bu ko’rsatgich 2020 yilga nisbatan 186968,9 mln so’m ko’proq mablag’ni tashkil etgan.

Demak, 2020 yilda sarflangan jami mablag’larning enga ko’pi ya’ni, 15% Andijon viloyatiga to’g’ri kelgan bo’lsa, 13% Jizzax viloyatiga to’g’ri kelgan. Ko’p tarmoqli fermer xo’jaliklarini rivojlantirish bo’yicha sarflangan mablag’larning nisbatan kam foizi (3%) Farg’ona viloyatiga tegishlidir.



1-rasm. 2022 yilda ko’p tarmoqli fermer xo’jaliklariga ajratilgan jami mablag’lar (mln so’m)

Fermer xo’jaliklarida qo’shimcha tarmoq faoliyatini yo’lga qo’yish yalpi daromadning 50% dan ortiq ko’payishini ta’minlashi bilan birga mahsulotlari isrofgarchiligini kamaytirib shu yerning o’zida uni qayta ishlashni yo’lga qo’yish, yangi ish o’rinlarini yaratish imkoniyatini bermoqda.

Iqtisodiy islohotlar davomida Namangan viloyati qishloq xo’jaligi ishlab chiqarishida islohotlarni chuqurlashtirish dasturining bajarilishini ta’minlash, mulkdorlar sinfini shakllantirish, qishloqda fermerchilik harakatini kengaytirish ya’ni jamoa va shirkat xo’jaliklari o’rnida dehqon va fermer xo’jaliklarini tashkil etish, ko’p ukladli iqtisodiyotni rivojlantirish asosida qishloq xo’jaligida yangi agrar munosabatlarni qaror toptirish ustuvor vazifa bo’lib qoldi.

Viloyatda 235 ming gektar sug’oriladigan yerlar bo’lib, qishloq xo’jaligida foydalaniladigan yerlarning 60,9 foiziga teng. Norin, Mingbuloq, Uychi, Uchqo’rg’on, Namangan tumanlari dehqonchilikda foydalaniladigan yerlarning deyarli 100 foizi sug’oriladigan yerlardan iborat. Pichanzorlar va yaylovlar ulushi o’rtacha 39,1 % bo’lgani holda, uning kattaroq ko’rsatkichlari Pop va Kosonsoy tumanlarida qayd etiladi. Ekin yerlari 196,2 ming ga bo’lib, Minbuloq, Uchqo’rg’on va Norin tumanlarida qishloq xo’jaligida foydalaniladigan yerlarining 90%dan ortig’i ekin yerlarga to’g’ri keladi. Viloyatda ko’p yillik daraxtzorlar 36,1 ming ga ni tashkil etib, bunday yerlar viloyatning Yangiqo’rg’on (10,5 ming ga (qishloq xo’jaligida foydalaniladigan yerlarning 32,5%i)), Chust (6,2 ming ga (qishloq xo’jaligida foydalaniladigan yerlarning 18,4%i)) va Chortoq (4,2 ming ga (qishloq xo’jaligida foydalaniladigan yerlarning 18,7%i)) tumanlarida katta maydonni egallaydi. Bo’z yerlar 3,4 ming ga ni, 987 gektarni esa meliorativ qurilish holatidagi yerlar tashkil etadi.


4-jadval

Namangan viloyati qishloq xo’jaligida foydalaniladigan yerlar tarkibi (2022 y)

Qishloq tumanlari	Maydoni ming ga	Qishloq xo’jaligida foydalanila-digan yerlar, ming ga	Shu jumladan, sug’oriladi-gan yerlar, ming ga	Qishloq xo’jaligida foydalaniladigan yerlarga nisbatan, foizda			
				ekin yerlar	ko’p yillik daraxtzorlar	bo’z yerlar	Pichanzor va yaylovlar
Kosonsoy	50,8	31,3	20,6	56,3	9,6	-	34,1
Mingbuloq	56,3	36,6	34,7	93,9	2,9	0,5	2,7
Namangan	29,9	17,5	15,2	75,3	10,9	0,4	13,4
Norin	20,7	13,0	13,0	92,4	7,6	-	-
Pop	280,0	147,4	33,4	19,8	2,2	0,7	77,3
To’raqo’rg’on	30,9	17,2	15,0	73,4	11,7	1,9	13,0
Uychi	31,3	17,8	17,8	85,8	13,8	0,4	-
Uchqo’rg’on	30,0	20,7	20,7	94,2	5,8	-	-
Chortoq	36,9	22,7	15,7	49,3	18,7	1,2	30,8
Chust	91,9	34,2	28,1	63,2	18,4	0,8	17,6
Yangiqo’rg’on	49,9	32,4	23,0	38,0	32,5	0,4	29,1
Viloyat bo’yicha	718,1	390,3	237,8	50,8	9,5	0,6	39,0

Yalpi mahsulot ishlab chiqarishda qishloq xo’jaligining ulushi 36,8 foizga teng bo’lib, mintaqada asosan sug‘orma dehqonchalik rivojlangan. Paxtachilik, donchilik, sabzavotchilik, bog’dorchilik va polizchilik tarmoqlari shakllangan.

Mustaqillik yillarida qishloq xo’jaligi ekin maydonlari tarkibida g’alla maydonlarining kengaytirish xisobiga tarkibiy o’zgarishlar yuzaga keldi.




2-rasm. 2020-2022 yillar uchun makroiqtisodiyko’rsatkichlar (mlrd.so’m)

Respublika agrar sohada chuqur tarkibiy o’zgarishlarning amalga oshirilishi natijasida 2022 yilda qishloq xo’jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi qariyib 15 foizga oshdi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek, – qishloqlarimiz hayotida yuksak natijalarga erishishda, avvalo, qishloq xo’jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishning asosiy shakli sifatida fermerlikni yo’lga qo’yganimiz va uning

rivoji uchun keng imkoniyatlar ochib berganimiz hal qiluvchi rol o’ynadi. Bugungi fermer xo’jaliklari samarali faoliyat yuritish uchun o’z ixtiyorida ijara asosidagi yetarlicha ekin maydonlariga ega bo’lgan, yuksak samarali zamonaviy texnika bilan ta’minlangan, ilg’or texnologiyalarni puxta egallagan yirik xo’jaliklardir. Muxtasar aytganda, ular qishloqlarimizning tayanch ustunidir.

Qishloq xo’jaligi xomashyosini chuqur qayta ishlash, yetishtirilgan mahsulotlarni saqlash infratuzilmasini rivojlantirishga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. O’tgan yili qishloq xo’jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan 230 ta korxona, 77 ming 800 tonna sig’imga ega bo’lgan 114 ta yangi sovutish kamerasi tashkil etildi va modernizatsiya qilindi. Mamlakatimizda meva-sabzavotlarni saqlashning umumiy quvvati 832 ming tonnaga yetkazildi. Bu esa, yil davomida narxlarning mavsumiy keskin oshib ketishiga yo’l qo’ymasdan, aholini asosiy turdagi qishloq xo’jaligi mahsulotlari bilan uzluksiz ta’minlash, ushbu mahsulotlarni eksport qilishni kengaytirish, narx-navo barqarorligini saqlash imkonini bermoqda.



3-rasm 2015-2022 yillarda fermer xo’jaliklariga davlat byudjetidan berilgan subsidiyalar to’g’risida ma’lumot (mlrd so’m)

Shu bilan birga, qishloq xo’jaligining meva-sabzavotchilik, bog’dorchilik, uzumchilik va chorvachilik kabi tarmoqlari ham jadal sur’atlarda rivojlandi. O’tgan yili 12 million 592 ming tonna sabzavot va kartoshka, 1 million 850 ming tonna poliz mahsulotlari, 1 million 556 ming tonna uzum, 2 million 731 ming tonna meva yetishtirildi.

Muhokama

O’zbekistonda qishloq xo’jaligi tarmog’ining rivojlanishini innovatsion boshqaruvi samaradorligi masalalari bo’yicha muammoning umumiy tomonlari iqtisodchi olimlarimiz M.Q.Pardaev, Ch.Murodov, N.Xushmatov, T.X.Farmonov, Q.A.Choriev, R.X.Ergashev ilmiy ishlarida o’rganilgan. Ularning ishlari xo’jalik yuritishning bozor sharoitida qishloq xo’jaligi ishlab chiqarishini samarali yuritish nazariyasi va amaliyotini ishlab chiqishga katta hissa qo’shdi.

Agroklasterlarning umumiy xususiyatlari

Ko’rsatkichlar	**Mazmuni**
Tashkil etishdan maqsadi	Innovatsiya aloqalarini rivojlantirish, ixtisoslashuvi va joylashuvi orqali bozor sub’ektlarini bir-birlariga yaqinlashishlari evaziga alohida tarmoqlaryoki mintaqalarning raqobatbardoshligini oshirish
Aloqalarning turlari va xususiyatlari	Vazifalari, bozor, mintaqaviy va tarmoqlar o’rtasida
Samarali tizimning shakllanishi (usullari)	Bozor munosabatlari va mexanizmlari ta’sirida, davlat-xususiy korxonalar hamkorligini maqsadli tashkil etish, agroxoldinglar va qo’shma korxonalar hamda alohida iqtisodiy hududlar tuzish
Iqtisodiy asosi	Innovatsion ishlab chiqarish, texnoparklar, yagona texnologik jarayonlarga ega bo’lgan ishlab chiqarish va tarmoqlar
Institutsional xususiyatlari	Davlat strategiyasi ob’ekti, shu jumladan, innovatsiya sohasida
Tashkil etish va boshqarish usullari	Strategik va indikativ rejalashtirish, maqsadli-dasturiy yondashuv, loyiha usullari
Nazariy asoslari	M.Porter raqobat nazariyasi, tizimli yondashuv asoslari, o’sish doirasi kontseptsiyasi va boshqalar
Iqtisodiy tizimi	Bozor iqtisodiyoti
Chegaralari	Belgilangan hududi chegaralanmagan, analitik usullar orqali aniqlanadi

Rivojlangan mamlakatlar tajribasining ijobiy natijalariga ko’ra, agroklasterlarni shakllantirish va ular faoliyatini rivojlantirish qishloq xo’jaligining raqobatbardosh rivojlanishining samarali omillaridan biri hisoblanadi.

Agroklasterlar o’z faoliyatida quyidagi xususiyatga asoslanishi mumkin:

- qishloq xo’jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish bo’yicha hududiy ixtisoslashuv va mahalliylashtirish;
- tarmoqning xo’jalik yurituvchi sub’ektlari o’rtasidagi o’zaro aloqalar;


turli tarmoqlar o’rtasida qishloq xo’jaligi mahsulotlaridan tayyor.

Bugungi kunda qishloq xo’jaligining barqaror rivojlanishi uning raqobatbardoshligiga, modernizatsiyalashni amalga oshirishga bevosita bog’liqdir. Modernizatsiyalash, o’z navbatida, qishloq xo’jaligining istiqbolli raqobatbardosh modelini yaratish, qishloq xo’jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va sotish jarayonlarida faoliyat yuritayotgan turli xo’jalik yuritish sub’ektlari bilan o’zaro hamkorligini mustahkamlash, uning maqbul ijtimoiy tarkibi va qishloq xo’jaligi sub’ektlarini bozor tamoyillariga mos tashkiliy turlarini shakllantirishni taqozo etadi. Ushbu yo’nalishda agroklasterlarni O’zbekistonda barpo etish muhim omil hisoblanadi. Shu sababdan respublika sharoitida yangi institutsional tuzilma hisoblangan agroklasterlarning nazariy, uslubiy jihatlari va xorijiy mamlakatlar tajribasini o’rganish muhim omil hisoblanadi.

Agroklasterning markazi o’z atrofiga strategik o’zaro hamkorlik to’g’risidagi shartnoma asosida qishloq xo’jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari (fermer va dehqon xo’jaliklari), turli xizmat ko’rsatuvchi infratuzilma tashkilotlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari, mahsulotlarni sotish va reklama qiluvchi marketing xizmatini birlashtirgan qayta ishlovchi korxonalar bo’lishi mumkin.

4-rasm. Qishloq xo’jalik mahsulotlari yetishtirishni klaster usulida tashkil etish

Agroklasterning mohiyati A.A. Nastin tomonidan atroflicha asoslangan: “agroklaster bir



vaqtda va o’zaro hamkorlikda ishlab chiqarish vazifalarini hal qilish va atrof-muhitni himoya qilishda birlashish maqsadida geografik jihatdan bir joyda joylashgan, o’zaro bir-biriga bog’liq va bir-birini to’ldiruvchi, turli mulk egalari oilaviy ferma, fermerlarning kooperativ korxonalari, ijtimoiy va ilmiy tashkilotlar, ta’lim muassasalari va maslahat xizmatlaridan iborat bozor sub’ektlari tizimi” dan iborat. Agroklasterlar o’zining iqtisodiy mazmuniga ko’ra agrosanoat majmuida tadbirkorlik agroklasteri tarzida namoyon bo’ladi.

Xulosa

O‘zbekiston mintaqalarida qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda yuqori malakali mutaxassislarni jalb etishga alohida e’tibor berish kerak. Bu bilan qishloq xo’jaligini oqilona boshqarish va ishlab chiqarish resurslarini samaradorligi, ishlab chiqarish rentabelligini oshirishga imkoniyat yaratiladi.

Agroklasterlarni tashkil etish borasidagi ilg’or tajribalarni o’rganish asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- agroklasterlar meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarish – saqlash – qayta ishlash – sotish texnologik jarayonlarini yagona integratsion tizimga birlashtirish orqali mahsulotlar sifati va raqobatbardoshligini nazorat qilish hamda oshirishdan tomonlarning manfaatdorligini ta’minlaydi;
- agroklasterlarda mehnat taqsimoti, hududiy va xo’jaliklararo ixtisoslashuv hamda

mehnat kooperatsiyasi kuchli rivojlangan bo’lib, bu ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga imkon yaratadi;

- agroklasterlar qishloq hududlarining asrlar davomida shakllangan hamda avloddan-avlodga o’tib kelgan tarixiy va milliy an’analaridan, qishloq xo’jaligi mahsulotlari yetishtirish sohasidagi bilim, ko’nikma va tajribalaridan samarali foydalanishga, ularni kelgusi avlodlar uchun saqlab qolishga imkon yaratadi;

- agroklasterlarda davlat – oliy o’quv yurtlari - ilmiy tadqiqot muassasalari – fermer xo’jaliklari – qayta ishlash korxonalari – tayyorlov va sotish tuzilmalarining hamkorlikdagi faoliyati yo’lga qo’yilishi natijasida ishlab chiqarishga yuqori unumli zamonaviy texnologiyalar hamda innovatsiyalarni joriy etish ishlari jadallashadi;

agroklasterlar marketing tizimlarini rivojlantirish orqali mahsulotlar eksport salohiyatini mustahkamlashga ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023 yil uchun Murojaatnomasi. Xalq so’zi gazetasi, 2022 yil 21 dekabr, № 272 (8334)
2. Алтухов И.А., Девяткина Л.Н. Становление фермерства в России // Аграрная наука. - М., 2000. - № 8. - С. 2-3.
3. Буздалов И.Н. Аграрная реформа в России (концепции, опыт, перспективы). - М.: «Знание», 2000. - С. 325.
4. Баккет М. Фермерское производство: организация, управление, анализ. - М.: Агропромиздат, 2002. - С. 470.
5. Баутин В.М. Понятие «инновация» как экономическая категория // Развитие инновационной деятельности в АПК: материалы международной научно-практической конференции. - М.: ФГНУ «Росинформагротекс», 2003. - С. 251-253.
6. Попов Н.А. Экономика сельского хозяйства. - М.: «Дело и сервис», 2005. - С. 56.
7. Abdurahmonov Q.H., Imomov V.A. O‘zbekistonda mehnat potentsialidan samarali foydalanish va uni boshqarish. Monografiya. – T.: Akademiya, 2008. – B. 224
8. Sharifxo’jaev M., Abdullaev Yo. Menejment. Darslik. – T.: «O’qituvchi», 2001. – B. 451
9. Akramov B.A. va boshqalar. Qishloqda fermer xo’jaliklarini yuzaga kelishi va rivojlanishining asosiy tamoyillarini belgilash: uslubiy qo’llanma. – T., 2007. – B. 23
10. Berkinov B., Tashmatov R.X. O’zbekistonda fermer xo’jaliklar va ularga xizmat ko’rsatuvchi bozorinfratuzilmalarni rivojlantirish istiqboli. Ilmiy-ommabop nashr. – T.: TDIU, 2008. – B. 43
11. Yakubjonov Rahmonjon. “Gradual Diversification of the Agricultural System in the Regions”. Modern Journal of Social Sciences and Humanities
Vol. 5 (2022)
12.Urinov, Bakhrom Djamoliddinovich (2020) "THE QUALITY OF EDUCATION AND THE MAIN FACTORS AND CRITERIA THAT DETERMINE IT," Scientific Bulletin of Namangan State University: Vol. 2 : Iss. 6 , Article 84.
13. Якубжанов Рахманжон. “Роль Сельского Хозяйства В Экономике Нашей Страны”. Central Asian Journal of Education and Innovation Vol. 2 (2023)

Internet saytlari

1. http://www.cer.uz " Экономическое обозрение » jurnalining sayti
2. http://www.google.com –Ma’lumotlar qidiruv sayti ‖
3. http://www.uza.uz –O’zbekiston axborot agentligi ‖ sayti